

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIGA XORIJY INVESTITSIYALARNI  
JALB QILISHNING YO'LLARI

Norxo'jayeva Irodaxon

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Akishova Shaxnoza

Ilmiy rahbar irodaxonnorxojayeva1@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida mamalakatimizga xorijiy investitsiyalarini jalb qilish hamda ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Shuningdek, xorijiy investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni haq-huquqlarni himoya qilish to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, huquq, infratuzilma, xorijiy investor, valuta, iqtisodiy omillar, siyosiy omillar, moliyaviy investitsiyalar, asosiy fondlar.

## KIRISH

Hududlarga xorijiy investitsiyalarini jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarini zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas.

Mamlakatda samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlatdan tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga xorijiy investitsiyalarini safarbar etish mamlakatimizning iqtisodiyotni rivojlantirishga turtki bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to'g'risida»gi, «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlari, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi hamda 2017 yil 19 iyundagi PF-5087-sonli «Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2017 yil 5 sentabrdagi PF-5177-sonli «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish xorijiy investitsiyalarning jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi yettiita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash yo'nalishida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini

ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish maqsadi amalga oshiriladi. Natijada kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rildi[1]

Asosiy qism: Har bir mamlakat bir necha sabablarga ko'ra xorijiy investitsiyalarga muhtojdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarga kapital oqimi nafaqat kapitalning ichki zaxirasini qo'shish va natijada bandlik va ishlab chiqarishni tezlashtirish, balki yetakchi va orqada qolgan hududlar rivojlantirishi uchun ham kerak. Mamlakatimiz aholimizni yashash tarzini yaxshilash va iqtisodiyotimizni yaxshilash uchun ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilishi zarur. Investitsion mablag'lari hajmini ko'paytirishdan hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar mamlakatga texnologiyani sotib olish va uning kirib kelishiga yordam beradi. Chet ellik investitsiyalarni jalb qilish mamlakatdagi mahsulotlar sifatini ham oshirishga yordam beradi. Sifatning yaxshilanishi mamlakatimizning eksport salohiyati yuksaltiradi. Xorijiy investorlar ko'p hollarda yangi texnologiyalar olib keladi bu hodimlarning intellectual salohiyatini oshirisha hamda chet el standartlariga mos keladigan kadrlar tayyorlashga yordam beradi.[2]

Mamlakatingizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning 5 ta usuli:

1. Investorlar mamlakatga sarmoya kiritishda barqaror va istiqboli porloq biznes muhitini izlaydilar. Bu shaffof me'yoriy-huquqiy hamda qonunlar va siyosatlarga ega bo'lish va bu siyosatlarning amalga oshirilishini anglatadi. Mamlakatlar, shuningdek, investorlar bilan ishonchni mustahkamlash uchun siyosiy barqarorlik ta'minlashi kerak. Yana mamlakatda korrupsiyaning darajasini minimallashtirishi zarur.

2. Hukumatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun bir qator imtiyozlar va soliq imtiyozlarini taklif qilishlari mumkin. Bularga soliq ta'tillari, pasaytirilgan soliqlar va ayrim soliqlardan ozod qilish kiradi. Rag'batlar, shuningdek, muayyan tarmoqlar yoki hududlarga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash kerak. Ular grantlar va subsidiyalarni o'z ichiga olishi mumkin. Biroq, bu imtiyozlar shaffof va haqqoniy bo'lishi mumkin.

3. Malakali ishchi kuchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun juda muhim. Chunki investorlar o'z faoliyatini qo'llab-quvvatlay oladigan va ularning talablariga javob beradigan kadr izlaydilar. Mamlakatlar o'zlarining ishchi kuchlarini rivojlantirish va jahon bozorida raqobatlasha oladigan ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlash kerak. Ishchilarni aqliy salohiyatini oshirish uchun ta'lim va o'qitish dasturlariga sarmoya kiritishlari kerak.

4. Infratuzilma sarmoya kiritish kerak. Bu investorlar uchun qayerga sarmoya kiritish haqida qaror qabul qilishda asosiy e'tibordir. Mamlakatlar sarmoyadorlar uchun jozibador muhit yaratishsa bu investorlarni jalb qilishda muhim ro'l o'ynaydi. Masalan, transport tarmoqlari, energiya va suv ta'minoti, kommunikatsiya

texnologiyalari kabi muhim infratuzilmaga sarmoya kiritishi kerak. Bu orqali fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash, mamlakatni yashash va ishlash uchun yanada qulay joyga aylantirishi mumkin.

5. Kuchli xalqaro aloqalarni o'rnatish mamlakatlarga xorijiy sarmoyalarni jalg qilishga yordam beradi. Mamlakatlar o'zlarining biznes muhitini rivojlantirish va sarmoyalarni jalg qilish uchun boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va global investorlar bilan hamkorlikni rivojlantirishlari mumkin. Shuningdek, bu iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan yangi bozorlar va texnologiyalarga kirishni ta'minlaydi. [3]

Ma'lumki investitsiya faoliyati kapital, tadbirkorlik, moliya, innovatsiya, ijtimoiy, iste'mol va boshqa investitsiyalarning hamma turlari bilan bog'liq bo'lib, odatda, soliqlarning fiskal va tartibga solish funksiyalaridan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalg qilish uchun bir qator chora-tadbirlar qayd etilgan. Hozirgi kunda faoliyat ko'rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator yengilliklar, imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o'z ijobiy samarasini bermoqda. Masalan, Respublikamizda xorijiy investorlar o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkidan boj to'lovi olinmaydi, Respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga sarf etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalar daromad solig'idan 7 yil muddatga ozod etilgan, korxona jamg'amasida xorijiy investitsiya mablag'lari hissasi 50% va undan yuqori bo'lsa, ular 2 yil muddatga daromad solig'idan ozod qilingan va boshqa soliq imtiyozlar belgilangan. Hozirda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalar soni 2017-yil boshida 3 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 22 taga yetdi. Shundan 12 tasi sanoat, 6 tasi farmatsevtika, 2 tasi turizm, 2 tasi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan.

2023- yil yanvar-iyun oylarida xorijiy investitsiya va kreditar, trln. so'm:

1. Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar-28,3
2. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar-23,8
3. O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar-6,9

[4]

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning 3 ta shakli ham, ya'ni "sotib olish - birlashish", "qo'shma korxona" va "noldan boshlab qilinadigan investitsiyalar" shakllari ham rivojlanib bormoqda. Ushbu shakllarning rivojlanganlik darajasining turli tumanligi bozor munosabatlarining zamonaviy darajasi, investitsion siyosatning ustuvorzo yo'nalishlari, respublikadagi investitsiya iqlimining holati va istiqbollarini namoyon etadi. Masalan, yuqori texnologiyalar bilan bog'liq sohalarda avtomobil tarmog'i yoki xorijiy korporatsiyalar "noldan boshlab qilinadigan investitsiyalar" ga nisbatan kuchli hamkor bilan qo'shma korxona yaratishni avfzal biladi. Qo'shma korxonalar tashkil etish chet ellik sheriklar bilan aloqasini yuksaltiradi hamda mamlakat hududida

xorijlik tadbirkorliklarga keng shart sharoitlar yaratishga yordam beradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri bu qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berilishidir.[5]

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikamizning IT, konchilik, energetika, turizim sohalariga investitsiya jalb qilsak, bu mamlakatimizning jozibadorligini yanada oshiradi. Bilimga chanqoq yoshlarimiz uchun IT-parklar tashkil qilsak hamma texnologik kasblar bitta joyda joylashadi. Turizm sohasi, chet ellik turistlarni jalb qilishga va mamlakatimizga chet el valyutasi kirib kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Konchilikka investitsiya jalb qilish bu sohada yangi chet el texnologiyalarni tatbiq qilib ishchilarni ishini yengillashtirishi mumkin. Respublikada neft va gaz konlarini izlash, razvedka qilish, qazib olishni amalga oshiradigan xorijiy investorlarga qo'shimcha imtiyozlar va bevosita muzokaralar asosida konsessiyalar berilishi kerak. Energetikaga investitsiya jalb qilsak olis hududlarni ham elektroenergiya bilan ta'minlashimiz mumkin. Shuningdek, ko'plab ish o'rinalarini yaratishimiz mumkin deb hisoblaymiz.

Xulosa: Chet ellik investitsiyalarni jalb qilish mamlakatdagi mahsulotlar sifatini ham oshirishga yordam beradi. Sifatning yaxshilanishi mamlakatimizning eksport salohiyati yuksaltiradi. Qisqacha aytganda: xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jozibador biznes muhitini yaratish, imtiyozlar taklif qilish, malakali ishchi kuchini rivojlantirish, infratuzilmaga sarmoya kiritish va mustahkam xalqaro aloqalarni o'rnatishga qaratilgan aniq va muvofiqlashtirilgan strategiyani talab qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boboyev Akmal Choriyevich, Yodgorova Zarnigor Yahyo qizi "Hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati". Monografiya. Buxoro-2023 yil
2. How Can We Attract Foreign Investments? - Tales Of Travelling Sisters
3. "5 strategies for attracting foreign investment to your country" ([linkedin.com](https://www.linkedin.com))
4. Stat.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi (O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar 2023-yil yanvar-iyun)
5. Boboyev Akmal choriyevich, Yodgorova Zarnigor yahyo qizi "Hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati". Monografiya. Buxoro-2023 yil